

Mundarija

Kirish	
1-bob. Multimedia ma`lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili	
1.1. O`qitish texnologiyalari asosida ta`lim samaradorligini oshirishning ayrim usullari va ularni turlariga oid mavjud manbalar tahlili.....	
1.2. Multimedia ma`lumot formatlari va ularning solishtirma tahlili	
1.3. Masalaning qo`yilishi	
2-bob. Freemake Video Converter dasturini o`rgatuvchi dasturiy vositalar	
2.1. O`rgatuvchi dasturiy vositalarni yaratish dasturlari, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlari	
2.2. Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma`lumotlar	
2.3. Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo`yicha texnik va operasion tizimga qo`yiladigan talablarni ishlab chiqish.....	
3-bob. Freemake Video Converter dasturi o`rgatuvchi dasturiy ta`minot yaratish	
3.1. Freemake Video Converter dasturini o`rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi.....	
3.2. Yaratilgan dasturiy ta`minotdan foydalanish yo`riqnomasi.....	
3.3. Video va video fayllardan tajribada foydalanish.....	
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	
4.1. O`rgatuvchi dasturlar bilan ishlaganda kompyuter xonasiga bo`lgan gigienik talablar va uning yoritilishi	
4.2. Ish joyi va u yerda ishlash sharoitini tashkil qilish	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	
Ilova	

Kirish

Barchamizga ma'lumki, axborot kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning juda ko'plab farmon va qarorlari, aynan shu yo'nalishdagi Qonunlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri 2012 yil 21 mart, PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari keltirib o'tilgan quyidagi "...axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish..." axborot kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar davlatimiz miqyosida e'tiborda ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar: "...Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur. ..."

SHuningdek, prezidentimiz o'z ma'ruzalarida, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020 yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshishi ta'kidlab, Koreya Respublikasining yalpi ichki mahsulotida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining ulushi 11,8 foizdan ziyodni, SHvesiyada 7 foizni, Amerika Qo'shma Shtatlarida esa 6,8 foizni tashkil etishini aytib o'tdilar. Xozirgi vaqtda esa, mamlakatimiz bu borada dastlabki bosqichda turganimizni tan olishimiz darkorligini aytib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining atigi 2 foizga yaqini axborot-kommunikasiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlab o'tdilar. Mana shu keltirib o'tilgan raqamlar hamda fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotimiz kelgusidagi rivojiga xissa qo'shuvchi bu sohada yetuk mutaxassislarni yetishtirishda o'rgatuvchi dasturiy ta'minotlarni yaratish va o'quv jarayonlarida ko'llash biz yosh mutaxassislarni o'z ustimizda yanada ko'proq ishlashimiz lozimligini ko'rsatadi.

Fan sohasini formal tasnifi. Kasb-hunar kollejlari o'qitiladigan Multimedia tizimlari fani mutaxassislik fanlar bloki bo'limida keltirilib, bu fan o'quvchilarga 3 kursda o'qitiladi. SHuningdek, kasb – hunar kollejlari Multimedia tizimlari va texnologiyalari kichik mutaxassislari uchun ham mutaxassislik fani sifatida o'qitiladi. Ushbu fanda talabalarga internet tarmog'i uchun dinamik saytlar yaratishda turli animasion namoyishlar ishlab chiqish, turli xil maqsadlar uchun video ishlamlar, audio-video namoyishlar hamda ularning formalarni o'zgartirish yoki yangi yaratish o'rgatiladi. Bitiruv malakaviy ishida keltirib o'tilgan **Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish** mavzusi ham aynan manashu yo'nalishda foydalaniladigan videoma'lumotlarni tiplarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot imkoniyatlarini o'rganish nazarda tutiladi.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Ushbu fan sohasida juda ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan, lekin ushbu yo'nalish bo'yicha yangi dasturiy instrumentlar ham yaratilmoqdaki, ularni imkoniyatlari yanada kengroq va ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. SHunday dasturiy vositalardan biri Freemake Video Converter dasturi hisoblanadi. Bu dasturiy vosita ham o'quvchiga turli tipdagi video fayllarni tiplarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi. Bu dasturiy vositani o'rganishning asosiy sababi ham kasb-hunar kollejlarning mazkur mutaxassisligi bo'yicha ta'li olayotgan talabalarni yangi dasturiy vosita imkoniyatlari bilan tanishtirish hamda ularni videofayllarni tiplarini o'zgartirish bo'yicha bilim saviyalarini yanada oshirishdan iborat.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). YUqorida keltirib o'tilgan bitiruv malakaviy ishi mavzusining, ya'ni Freemake Video Converter dasturida ishlash bo'yicha kasb-hunar kollejining mazkur mutaxassislik bo'yicha bitiruvchi talabalarini bilim va saviyalarini oshirishda mustaqil ta'lim sifatida hamda o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri modulli o'qitish texnologiyasini o'quv jarayonida qo'llash orqali maqsadga erishish nazarda tutiladi.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejlarning Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo'yicha kichik mutaxassislari uchun mutaxassislik fanlari blokidagi Multimedia tizimlari fanida modulli o'qitish texnologiyasini o'quv jarayonida mavzuga qo'llash va yetarli samaraga erishish ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish mavzusi bo'yicha tayyorlangan malakaviy bitiruv ishi asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan. Bular, kirish, asosiy qism, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalarni tahlil qilish, Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalarni tahlil qilish, mavzuning dolzarbligi hamda bitiruv malakaviy ishining tuzilishi bo'yicha zaruriy ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Mavzuning dolzarbligi, uning bugungi kun nuqtai nazaridan talqin qilinib, uning haqiqatda dolzarb masala masala ekanligi asoslab beriladi.

Asosiy qism esa, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, 1-bobda bitiruv malakaviy ishini bajarish sababi, masalaning dolzarbligi, shuningdek, Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalarni tahlil qilish hamda Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalarni tahlil qilish vazifalari amalga oshiriladi. Multimedia ma'lumot formatlarini almashtirish dasturlari va ularning solishtirma tahlillarini amalga oshirish ishlarining tahlili hamda masalaning o'rganilganlik darajasi va uning qo'yilishi keltirib o'tiladi.

2-bobda Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalarni tanlash ishlari amalga oshirilib, O'rgatuvchi dasturiy vositalar, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlarini o'rganish amalga oshiriladi. SHuningdek, Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma'lumotlarni shakllantirish hamda Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish amalga oshiriladi..

Bitiruv malakaviy ishining ushbu bobida asosiy vazifalar amalga oshiriladi. Xususan, Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish va Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi qurish amalga oshiriladi. SHuningdek, yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish yo'riqnomasini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Hayot faoliyati havfsizligi bo'limida elektron sahifalar ishlab chiqishda kompyuter xonalarida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek kompyuter xonasiga bo'lgan gigienik talablar va uning yoritilishini tahlil qilish va qoidalarini ishlab chiqish vazifalari amalga oshiriladi. SHuningdek, umumiy tahlillari keltirib o'tiladi.

Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlarida esa, bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha umumiy xulosalar, takliflar va ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar hamda tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar keltirib o'tiladi.

Malakaviy bitiruv ishining izoh bo'limida yaratilgan dastur matni keltirib o'tiladi. SHuningdek, shu mavzuga tegishli bo'lgan internet ma'lumotlari ham keltirib o'tiladi.

1-bob. Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili

Bu bobda bitiruv malakaviy ishini bajarish sababi, masalaning dolzarbligi, shuningdek, Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalarni tahlil qilish hamda Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalarni tahlil qilish vazifalari amalga oshiriladi. Multimedia ma'lumot formatlarini almashtirish dasturlari va ularning solishtirma tahlillarini amalga oshirish ishlarining tahlili hamda masalaning o'rganilganlik darajasi va uning qo'yilishi keltirib o'tiladi.

1.1. O'qitish texnologiyalari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning ayrim usullari va ularni turlariga oid mavjud manbalar tahlili

Respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarining modernizasiyalanishi, fan-texnika sohasidagi innovasion g'oyalarni bevosita ishlab chiqarish sohasiga joriy etish zaruriyatining kelib chiqishi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida innovasion ta'lim texnologiyalarini yanada kengroq joriy etishni va ulardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bu borada o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlaridan mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol va kompyuterli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, shubhasiz ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

CHunki, interfaol va kompyuterli o'qitish texnologiyalari katta imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quvchining o'quv muhiti bilan aloqadorligini o'rnatish orqali o'quv ob'ektlarini yoki texnologik jarayonlarni boshqarish imkoniyatini beradi. Interfaol texnologiyalardan foydalanishning asosiy usuli interfaol muloqot bo'lib, u foydalanuvchi hamda dasturiy tizim orasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlaydi. Agar muloqotda matnli buyruqlar va javoblar inobatga olinadigan bo'lsa, dasturiy tizim muloqotning takomillashgan vositalarini kiritish bilan xarakterlanadi. Bunday dasturiy tizimlar o'quv materiallarining mazmunini belgilovchi variantlarni tanlash, shuningdek muqobil ish rejimlarini belgilash imkoniyatlarini beradi.

Interfaol texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar o'quv jarayonining to'laqonli a'zosiga aylanadilar. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi tayyor bilimlari bermaydi, balki o'quvchilarni muammoni tushunish va uni hal etishning muqobil variantlarini mustaqil ravishda aniqlashga ilhomlandiradi. An'anaviy o'qitishdan farqli ravishda interfaol o'qitishda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ham o'zgaradi. Odatda o'qituvchining faol bo'lgan o'rmini o'quvchi egallaydi, uni rag'batlantirish esa o'qituvchining asosiy vazifasiga aylanadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda sub'ektlarning bunday munosabatlari asosida interfaol texnologiyalarni qo'llash quyidagi masalalarni yechishni nazarda tutadi:

- axborotlarni vizual akslantiruvchi qurilmalarning ishlash prinsiplari bilan tanishish;
- amaliy prezentasion masalalarni yechishda kompleks qurilmalarni va texnologiyalarni rasional tanlashning ko'nikmalarini egallash;
- interfaol prezentasion texnologiyalarni qo'llash amaliyotini egallash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo'lish.

O'rta maxsus kasb-ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda kompyuterli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida bunday texnologiyalarni joriy etish bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitishda differensiallashgan yondoshuvni joriy etishga imkon beradi. SHuningdek, ta'limda kompyuterli texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonining umumiy sifatini oshiradi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivasiyasini kuchaytiradi, o'qituvchilarni esa doimiy ijodiy izlanishga chorlaydi.

Xozirgi kunda kompyuterli o'qitish texnologiyalarning asosini kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar tashkil etadi. Kompyuterli o'rgatuvchi dasturni yaratishda quyidagi masalalarni bosqichma-bosqich bajarish talab etiladi:

1. O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishning psixologik-pedagogik va metodik asoslarini o'rganish bo'yicha adabiyotlarni tahlil etish.
2. Kompyuterli o'rgatuvchi dasturlarga qo'yilgan talablarni o'rganish.
3. Kompyuterli o'rgatuvchi dasturning ssenariysini ishlab chiqish.
4. Dasturning glabal algoritmini ishlab chiqish.

5. Kompyuterli o'rgatuvchi dasturni yaratish uchun instrumental dasturiy majmualarni tanlash.
6. O'rgatuvchi dasturning dastlabki variantini ishlab chiqish.
7. O'rgatuvchi dasturni sozlash va uning natijaviyligini ta'minlash.
8. O'qituvchilar va o'quvchilar uchush yaratilgan dasturdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish.

Kompyuterli o'rgatuvchi dastur o'qituvchiga yangi nazariy ma'lumotlarni kiritishga (shu jumladan grafik ma'lumotlarni), yangi materiallar bo'yicha savollarni ishlab chiqishga, o'quvchilarning reyting ballarini ko'rib borishga imkon beradi.

Kompyuterli o'rgatuvchi dasturning yutuqlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Istalgan fan bo'yicha o'quv kursini kompyuterga o'tkazish;
2. O'quvchilarni kitob izlashdan xolis etish;
3. O'quvchilarning faolligini oshirish, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan mustaqil ishlashni ta'minlash;
4. O'qituvchiga o'quv materiallarni yetkazish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilishga ketadigan vaqtini tejash;
5. O'quv materiallarni tezkor qayta yangilash va h.k.

SHuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda o'rta-maxsus kasb ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha ko'plab kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Garchi ularning har biri o'zining strukturasiga, o'quv materiallarni taqdim etish usuliga, test topshiriqlarining murakkablik darajasiga hamda shaxsiy interfeysiga ega bo'lsada, ularda o'quvchi tomonidan fanni mustaqil o'rganish, uning motivasiyasini oshirish, o'quvchiga axborotning har qanday turi bilan ishlash imkoniyatlarining yaratilishi kabi xususiyatlari bilan bir biriga yaqin hisoblanadi.

Mutaxassislik fanlaridan yaratilgan kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar ikki turdagi foydalanuvchilar (o'qituvchi va o'quvchi) Q nazariy materiallarni saqlaydigan ma'lumotlar bazasi, testlarning savol hamda javoblari, o'quvchilar ma'lumotlari, test natijalari kabi tashkil etuvchi komponentlardan tashkil topgan bo'lishi lozim.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rta-maxsus kasb hunar ta'lim tizimida interfaol va kompyuterli o'qitish texnologiyalarini qo'llash "kompyuterli o'qitish metodologiyasi"ni yaratilishiga olib keldi.

Xozirgi kunda kompyuterli o'qitish metodologiyasi nafaqat interfaol va kompyuterli o'qitish texnologiyalarini, balki o'quv jarayonida kompyuterli modellashtirishni, assosiativ usulni, test usulini, o'qitishning faol o'yinli usulini, shuningdek loyihalash va vaziyatli modellashtirish usullarini ham yaratilishiga va ulardan pedagogik maqsadlarga erishishda samarali foydalanishga olib keldi. Kompyuterli o'qitish metodologiyasi eng avvalo o'quv faoliyatining barcha turlarini integrasiyalashga va axborotlashgan jamiyatni barpo etish bo'sag'asida ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan sub'ektlarni ijodiy faoliyatini olib borishlari uchun zaruriy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgandir.

YUqoridagi fikrlar ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol va kompyuterli o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan birga ta'limni axborotlashtirishning metodologik asoslarini yanada rivojlantirish lozimligini taqozo etadi. Xozirgi kunda ushbu yo'nalish bo'yicha Respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, shubhasiz yosh avlodning axborot madaniyatini shakllinishida va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda yangi istiqbollarni ochib beradi.

1.2. Multimedia ma'lumot formatlari va ularning solishtirma tahlili

Videoyozuvlar bilan ishlash videomagnitofon yordamida yozib olingan tasvirni oldindan raqamli ko'rinishga o'tkazishni talab qiladi. Tasvirni raqamli shaklga o'tkazish deganda materialni analog shaklidan kompyuterga kiritish mumkin bo'ladigan raqamli shaklga o'zgartirish tushuniladi. Tasvirni raqamli shaklga o'tkazish uchun kompyuter maxsus videokarta, TV-tyuner va unga hamroh bo'lgan dasturiy mahsulot bilan jihozlanishi kerak. Raqamli shaklga o'tkazilgan videoëzuv TV-tyuner talab qilmaydi, quyidagi dasturiy mahsulotlar bo'lishi yetarli:

- Vstudio2 – videomagnitofondan videoëzuvni raqamliga o'tkazish uchun ishlatiladi; videoparchalarni turli shaklda montaj qilishga imkon beradi.

- Adobe Premier – fragmentlarni raqamlashtirish va ular orasida ko'plab o'tishlar bilan montaj qiluvchi murakkabroq dasturiy mahsulot. Adobe Premier

kadrlar o'lchamini va ularning orientatsiyasini (aylanish, kadr harakati traektoriyasini) o'zgartirishi mumkin.

- MorphMan – Stoik Software tarkibiga kiruvchi va videomaterial montaji hamda morfining yaratishga imkon beruvchi dastur. Morfining deganda bir tasvirning boshqasiga qadamba-qadam o'zgarib o'tishi tushuniladi. Ushbu dastur statik morfining bilan birga alohida videofragmentlar orasida ham morfining yarata oladi. Bunday qayta ishlovlar natijasida AVI kengaytmali videofayl yaratiladi.

Freelance Graphics Edition for Windows dasturida taqdimotlarni yaratish, tahrir qilish va formatlash.

Lotus kompaniyasining Freelance Graphics paketi versiyasi ajoyib interfeysga ega bo'lib, foydalanish qulayligi va o'ta moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Biroq uning ayrim funksiyalari noqulay (va hatto eskirgan), shuningdek, Windows yoki Windows NTning imkoniyatlaridan foydalanilmaydi. Ta'kidlash joizki, Freelance Graphicsda ko'pgina yangi g'oyalar amalga oshirilgan bo'lib, qisqartirilgan menyu va xossalar ro'yxati keltiriladi. Taqdimotlarni o'tkazish uchun Freelance Graphics Smart Master deb nomlanuvchi va o'zida 30 xil moliyaviy hisobotlar yoki o'rgatuvchi dasturlar kabi, shuningdek, sahifalarni joylashtiruvchi, fon ranglari, shrift garniturasini va rangini belgilovchi 120 ta grafik shablonlarni mujassamlashtirgan bezash uslublaridan iborat juda sodda tizimni taklif etadi.

Freelance Graphicsning rang tizimi ajoyib bo'lib, uning palitrasi juda keng, yaxshi tashkil etilgan. Ayniqsa, rasm chizish vositalarining keng to'plamiga ega bo'lgan Drawing and Text ranglar palitrasi tuzilmasi bilan ajralib turadi. Sichqonchaning o'ng tugmachasi yordamida ekrandagi har qanday element: grafika, chizilgan ob'ektlar, matn, import qilingan rastri tasvirlar va ko'chirib qo'yilgan ob'ektlar bilan samarali ishlash mumkin. Yaratilgan slaydlarni tahrir qilish murakkab emas. Komponovka qilish funksiyalari turlicha, biroq ko'pgina imkoniyatlari to'laqonli emas. Masalan, umumiy komponovka rejimida faqat ASCII formatidagi matnli hujjatlarnigina import qilish, Word Pro formatida esa faqat ko'chirish va qo'yish mumkin. Bu dasturning eng yaxshi funksiyalaridan biri Info Boxesning ko'pgina zakladkalaridan iborat oyna bo'lib, dasturning qaysi joyida bo'lishingizdan qat'i nazar, ob'ektlarning keng diapazonli xossalari – rang, garnitura va shrift o'lchami, abzas holatini oson sozlash imkoniyati mavjud. Ko'p yo'nalishdagi uzluksizlik funksiyasi bu yerda ham o'zini oqlaydi; taqdimotlar bilan ishlash uchun Info Boxesning chetki chiziqlariga sichqonchaning klavishini bosish shart emas. Grafik formatdagi fayllarni qamrab olish yetarli darajada keng bo'lib, tayyor tasvirlarni chaqirib olish oddiy va tayyor tasvirlardan iborat bo'lgan bir necha yuzlab fayllar bilan to'lgan uncha katta bo'lmagan bloknot shakliga ega. Qisqartirilgan menyuda Fast Format tez formatlash komandasi juda qulay bo'lib, grafik ob'ektlarning atributlarini o'zlashtirish va ularni boshqa ob'ektlarga qo'llash imkoniyatini beradi. Ma'ruzachi fikrlarini yaratish ham oddiy amalga oshiriladi; ularni repetisiya yoki World Wide Webda taqdimot qilish jarayonida ko'rsatib o'tilgan dasturlarning xohlagan birida tayyorlash mumkin. O'zgartirishlar kiritish ham juda oson: dasturning o'zi tanlash uchun tayyor kompozitsiyalarning bir nechtasini taklif etadi.

Endi kamchiliklari haqida: taqdimot fayllarini import qilishda natijalar har xil bo'lishi mumkin. Freelance Graphics dasturi Freelance Graphics, Harvard Graphics va PowerPointning avvalgi versiyalaridan fayllarni import qilish xususiyatiga ega. PowerPointdan import qilish esa juda ajablanarli – ob'ektning dastlabki rang tuzilmasi va komponovka elementlari saqlab turiladi.

Harvard Graphis for Windows

Harvard Graphics dasturining imkoniyatlaridan ko'pchiligi, yordam berish vositalari, diagrammalar tuzish funksiyasi va qo'yilmalar xarakteristikasi ajoyib. Biroq yaxshi tahrir qilish vositalarining yo'qligi va tayyor tasvirlarning yetarli emasligi dasturga yuqori baho berishga to'sqinlik qiladi. Harvard Graphics dasturida taqdimotlarni 12 xil, ya'ni biznes-reja, kompaniya tuzilishi haqida oddiy ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan Quick Presentation vositasi yordamida yaratishni boshlash mumkin. 31 grafik shablonlar va slaydlarning turlariga qarab (masalan, aylanali diagrammalar yoki jadvallar) bo'lingan bir qancha komponovka variantlarini tanlash mumkin. Xohishingizga ko'ra komandalar menyusi yordamida o'zingiz komponovkalarni yaratishingiz mumkin (masalan, jadvallar slaydiga diagramma qo'yish). Harvard Graphicsning qulay funksiyalaridan biri kontekstga bog'liq Advisor opsiyasi bo'lib, ekranda paydo bo'ladigan menyu oddiy ingliz tilida (sahifada matn markerlari juda ko'p, kabi xabarlarni ko'rsatib) komponovka va dizaynerlik usullarini taklif etadi. Bu opsiya ayniqsa diagrammalarni tuzish va jadvalli ma'lumotlarni tahrir qilishda juda foydalidir.

Sichqonchaning o'ng tugmachasini bosib chaqiriladigan qisqartirilgan menyu juda samaralidir. Attributes menyusining bandlari kontekstli-bog'langan xususiyatga ega bo'lib, ob'ektlarning turli xossalriga moslashuvchan bo'ladi. OLEning standart funksiyalari OLEni qo'llab-quvvatlovchi va Windowsning ro'yxatiga kiritilgan har qanday ilovalar yoki Microsoft Worddan jadvallarni qo'yish imkoniyatini beradi. Ko'chirib qo'yilgan va elektron jadvallar bu dasturda grafik ob'ekt sifatida qaraladi. Joyida tahrir qilish funksiyasi talab darajasida bo'lib, noodatiy vizual effektlarni yaratish uchun ajoyib grafik va gradient to'ldiruvchilarga ega.

Harvard Graphicsda diagrammalar to'plami cheklangan bo'lsa-da, ulardan foydalanishning osonligi bu kamchilikni qoplab ketadi. Doiraviy diagrammadan parcha ko'chirib olishda uning o'lchamlari o'zgarmaydi. Foydalanuvchi tanlagan izohlarni diagramma bilan birga joylashtirish ham oddiy amalga oshiriladi, xuddi sichqoncha bilan diagrammani aylantirish, bitta slaydda tuzilmaviy sxemalarni yaratish yoki turli diagrammalarni kombinasiyalash kabi bo'ladi.

Logarifmik o'qlar ham qo'llab-quvvatlanadi: ko'p sonli raqamlarni kiritish uchun jadvallardagi ustunlar o'lchamlarini o'zgartirish mumkin. Bularning hammasi diagrammalarni yaratishni qulaylashtiradi. Dastur bir qancha foydali tahrir qilish vositalariga ega. Matnli yoki grafik ob'ektni to'ldirish uchun rastrli grafika fayllaridan foydalanish mumkin. Xuddi shunday to'ldirish usuli import qilingan jadvallar va ma'lumotlar to'plamiga nisbatan qo'llanganda zo'r taassurot qoldiruvchi o'ziga xoslikni namoyon qiladi. Garchi Harvard Graphicsda yaratilgan jadvalarga ushbu to'ldirish usulini qo'llash mumkin bo'lmasa-da, Harvard Graphics jadvalini grafik ob'ekt sifatida konvertirlash va shu tarzda to'ldirishni amalga oshirish yetarli bo'ladi. Outline view ko'rish rejimida tanlangan slaydga yangi diagrammalarni qo'shish mumkin. Ushbu rejimda haqiqatan ham korxona tuzilmasi ichidagi matnlarni ko'rish mumkin.

Outline view rejimida matn qo'yish mumkin, biroq sichqoncha yordamida tortib yurish va import (garchand bu faqat ASCII formatidagi matnlar uchun tegishli bo'lsa-da) qilish mumkin emas. Yana bir g'alati tomoni shuki, Promote va Demote tugmalarini Outline instrumentlar paneliga chiqarish uchun ekrandagi dialog oynasi knopkalarini tortib olib borishga to'g'ri keladi. Harvard Graphics odatda ko'pgina amaliy dasturlarda uchraydigan grafik formatdagi fayllarni qo'llab-quvvatlaydi. Lekin tayyor tasvirlardan foydalanish funksiyasi – eng zaif qismi hisoblanadi.

Agar siz tortib yurish metodi bilan ishlasangiz, dastur tasvirni rastrli grafikaga yoki rasmga aylantirish, tanlash imkoniyatini beradi. Xar gal rasmning dastlabki fayli yangilanganda sizning taqdimotingizdagi rasm ham yangilanadi. Harvard Graphics dasturidagi rasm chizish funksiyasi ajoyib taassurotlar qoldiradi. Dastlabki rasm Microsoft kompaniyasining

Paint dasturini eslatuvchi juda sodda ilova yordamida yaratiladi. Rasm chizishning ayrim funksiyalari, shuningdek, maxsus effektlar soʻzsiz foydali deb hisoblash mumkin, lekin umuman olganda foydalanuvchilar uchun ular qoʻshimcha imkoniyatlar yaratmaydi. Ikki oʻlchovli grafiklarni uch oʻlchovliga aylantirish va koʻplab maxsus effektlarni qoʻllash imkoniyatlari mavjud. Dastur bilan ishlash oson boʻlib, bosh chizgʻich (lineyka)da qaysi tugmacha qanday vazifalarni bajarishini tushuntirib beruvchi yorliqlar paydo boʻladi.

Harvard Graphics maʼruzachi belgilar va oʻzgartirishlar kiritishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Oʻzgartirish kiritishda siz rastri rasmlar, qoʻlda chizilgan grafik obʼektlar, matnlardan oʻzingiz tayyorlagan komponovkalar, tasvirlarning chekka qismlarida maxsus effektlardan foydalanishingiz mumkin. Bitta kamchilik mavjud boʻlib, Print Preview funksiyasi yoʻqligi sababli siz kiritgan oʻzgarishlar qanday koʻrinishga ega boʻlishini koʻrish imkoniyatidan mahrumsiz. Maʼruzachining oʻzgartirishlarini kiritish uchun barcha asosiy funksiyalar, jumladan, ekranni, slaydlardagi tasvirlarning oʻzgaruvchan oʻlchamlarini oldindan koʻrish va toʻgʻridan- toʻgʻri tahrir qilish, shuningdek, har bir betda matnni formatlash qamrab olingan. Agar sizga koʻzga tashlanadigan yaqqol taqdimot yaratish kerak boʻlsa, maxsus effektlar, toʻldiruvchilar, tayyor tasvirlar va rasmlardan foydalanishingiz mumkin. Logotiplar va sarlavhalarni oʻzgartirish va izohlarni kiritgandek qoʻshish mumkin.

PowerPoint for Windows.

PowerPoint dasturi bu toifadagi dasturlar ichida eng yaxshisidir. Moslashuvchan interfeysning mavjudligi, choklarsiz koʻchirib qoʻyish funksiyasi va koʻp (murakkab) vazifalarni bajarish rejimida barqaror ishlash imkoniyati bu dasturni yangi avlod taqdimotli grafika mahsulotlari orasida lider darajasiga chiqardi. PowerPoint dasturining birinchi afzalligi yaxshi sozlanuvchi interfeysidir. Ekranga dasturiy oynada yettitagacha turli instrumentlar panelini chiqarish mumkin.

PowerPoint xizmat, ijodiy seans va hatto “noxush xabarlar” yoʻnalishlarini qamrab oluvchi koʻp turdagi slaydlar toʻplamini taklif etadi. Ushbu tiplarning har biri materiallarni joylashtirishning muayyan strategiyasiga ega boʻlib, AutoContent har bir slaydni taqdimotning dastlabki maqsadlari bilan bogʻlashni taklif etadi. (Masalan, agar siz “noxush xabarlar”ni namoyish qilayotgan boʻlsangiz, AutoContent sizning ikkinchi slaydingizda “bizning holatimiz” muhokama qilinishi va maʼruzachi “bu qanday sodir boʻlgan”ligini tushuntirishini moʻljallab turadi.) PowerPoint dasturida koʻp marta orqaga qaytish "multiple undo" imkoniyati juda yaxshi amalga oshiriladi. Masalan, 150 ta oʻzgartirishlarni ketma-ket yoki birdaniga 149 ta oʻzgarishga orqaga sakrab amalga oshirish mumkin. Agar siz jarayonlarga chuqur kirishib, ikki va undan ortiq dialog oynalariga murojaat etgan va Cancel tugmasini bosgan boʻlsangiz, dastur sizni dastlabki holatga qaytarib qoʻyadi, lekin bajarilgan ishlarni umuman oʻchirib yubormaydi. Maʼlumotlar jadvali oʻlchamlarini oʻzgartirish va unda turli shriftlarni ishlatish mumkin. Agar siz Microsoft Excelda ishlash boʻyicha katta tajriba egasi boʻlsangiz, unda PowerPointdagi Graph ilovasi ham xuddi shunday diagramma turlari va ularni toʻgʻrilash usullaridan foydalanadi. PowerPointda diagramma tuzishning ayrim modernizasiya qilingan funksiyalari kiritilgan boʻlib, ular boshqa dasturlar bilan mos kelmaydi. Organizational Chart ilovasini oʻrnatish ham birmuncha qiyinlashtirilgan. Funksiya umumiy koʻrinishidan kishida yaxshi taassurot qoldirmasa-da, Outline view rejimida qulay taqdimotlarni yaratish imkoniyatiga ega boʻlgan yagona dasturdir. Xar qanday hajmdagi matnni tortib koʻchirib qoʻyish silliq amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Word hujjatlarini import qilish va odatdagi shriftlarni qoʻllash mumkin.

1.3. Masalaning qo'yilishi

Biz yuqoridagi bo'limlarda Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha respublikamizda olib borilayotgan faoliyatlar tahlili hamda dars mashg'ulotlarida dasturiy vositalarni tahlil qilib o'tdik. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirib o'tilgan Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish masalasi dolzarb masala ekanligini alohida keltirib o'tdik.

2016 yilning mamlakatimizda «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi barchamizga katta quvonch va ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida» 2005 yil 28 sentyabrdagi PQ-191-son qaroriga muvofiq «ZiyoNET» ta'lim axborot tarmog'ini yanada takomillashtirish, uning sifatini oshirish hamda umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, axborot-kutubxona muassasalari, muzeylar va boshqa ta'lim, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalarning «ZiyoNET» tarmog'idan foydalanishini yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 10 iyuldagi 198-sonli «ZiyoNET ta'lim axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda mustaqil ta'lim oluvchi talaba va o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar ochib berildi.

Bu esa, bitiruv malakaviy ishida qo'yilayotgan masalaning dolzarbligidan dalolat beradi. Bitiruv malakaviy ishida kutiladigan natijadan kimlar va kaerda foydalanishidan kelib chiqib, ishda quyidagi muammolarni hal qilish talab qilinadi:

- Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalarni tahlil qilish
- Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalarni tahlil qilish
- Multimedia ma'lumot formatlarini almashtirish dasturlari va ularning solishtirma tahlillarini amalga oshirish
- Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalarni tanlash
- O'rgatuvchi dasturiy vositalar, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlarini o'rganish
- Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma'lumotlarni shakllantirish
- Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish
- Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish
- Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi qurish
- Yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish yo'riqnomasini ishlab chiqish
- Videokonverter dasturlari bilan ishlaganda foydalanuvchi ko'ziga bo'ladigan asosiy ta'sirlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

- Bajarilgan ishlar bo'yicha xulosalar berish

Masalaning qo'yilishida keltirib o'tilgan yukoridagi fikrlardan ko'rinadiki, Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish mavzuning mazmunini yanada yaxshiroq ochib beradi. Xususan, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan axborot texnologiyalariga oid fanlar bo'yicha qiziquvchi ukuvchilar uchun Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlari hamda bu asosdagi metodik manba yaratish har bir o'quvchi, izlanuvchi uchun yangi axborot texnologiyalarini qo'llab ilm olish saviyasini oshirib beradi. YA'ni o'rganuvchi o'qituvchisiz elektron manba asosida mustaqil o'rgana oladi.

2-bob. Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalar

Ushbu bobda Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalarni tanlash ishlari amalga oshirilib, O'rgatuvchi dasturiy vositalar, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlarini o'rganish amalga oshiriladi. SHuningdek, Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma'lumotlarni shakllantirish hamda Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish amalga oshiriladi.

2.1. O'rgatuvchi dasturiy vositalarni yaratish dasturlari, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlari

O'rgatuvchi dasturlar va mos ravishda Videodars ishlanmalarini yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy vositalarning juda ham turlari yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ulardan SnagIt hamda CamtasiaStudio7 dasturiy ta'minotlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu dasturiy ta'minotlar turli xil mavzularda, ayniqsa, axborot texnologiyalariga oid mavzular bo'yicha juda ham qo'l kelmoqda.

Elektron o'quv manbalari ilmiy malakaviy bilimlarning tizimlashtirilgan materiallaridan tashkil topgan bo'lib, bu o'quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o'stirib borishga xizmat qiladi.

Ular uch guruhga ajratiladi:

- elektron darsliklar (*an'anaviy qog'oz ko'rinishidagi darslik vazifasini to'liq bajaradigan va qisman o'qituvchi vazifasini ham bajaradigan elektron nashr*);
- o'quv filmlari (*an'anaviy qog'oz ko'rinishidagi yoki elektron ko'rinishidagi asosiy darslikni to'ldiruvchi videolavha ko'rinishida tayyorlangan elektron nashr*);
- ma'lumotnomalar (*ma'lum soha bo'yicha atama, xulosa, formula kabi umumiydashgan bilimni o'zida mujassam etgan ta'lim jarayonini to'ldiruvchi elektron nashr*).

Multimedia o'quv qo'llanmalari yaratish vositalari tahlili

ARM larda multimedia axborotlarini taqdim etishda ikki jihatni hisobga olish lozim:

- texnik ta'minot
- dasturiy ta'minot

Multimediali kompyuter texnikasi qurilmalari:

- Tovush platalari
 - Akustik tizimlar
 - Videosiganallarni kirituvchi-chiqaruvchi platalar
 - CD- ROM privodlar (faqat o'qish uchun CD disklar) va CDRW privodlar – o'qish va yozish (DVD)
 - Skannerlar – qog'ozdagi, fotosuratdagi va boshqa ko'rinishdagi axborotlarni kompyuter xotirasiga kirituvchi qurilma.
 - Raqamli fotoapparatlar
 - WEB – kameralar – videotasvirlarni kompyuterga kiritish va Internetda translyasiya qilish uchun
- Monitorlar va axborotlarni katta ekranga chiqaruvchi qurilmalar yoki reklama tablolari
- Multimedia sohasidagi dasturiy ta'minoti uch sinfga ajratilgan:
- Multimediali ilovalar. Ma'lum bir funksiyalarni, ko'p hollarda o'qish yoki dam olish maqsadida foydalaniladigan dasturiy vositalar kompleksidir.
 - Multimedia ilovalarini yaratishga mo'ljallangan vositalar. Multimediani qo'llab-quvvatlovchi tizimiy dasturlar

Multimediali ilovalar:


Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- qomuslar,
 - turli fanlar (sohalar) bo'yicha interfaol o'rganish kurslari,
 - o'yinlar va ko'ngil ochar dasturlar,
 - trenajyorlar,
 - savdo reklamalar vositalari, elektron prezentasiyalarva boshqalar
- Multimedia ilovalarini yaratishga mo'ljallangan vositalar:
- grafik redaktorlar (Adobe Photoshop, Illustrator, Pain.Net, CorelDraw);
 - videofilmlarni montaj va tahrir qiluvchi redaktorlar (Adobe Premiere, CamStudio, Ulead VideoStudio va b.);
 - tovushli axborotlarni yaratish va tahrirlash dasturlari (Sound Forge, Cool Editor, Software Audio Workshop vab.); gipermatnni amalga oshiruvchi dasturlar
- Multimediani qo'llab-quvvatlovchi tizimiy dasturlar:

- audio–video playerlari (dasturlari) masalan, windows media player),
- Audio va video axborotlarni zichlovchi kompressiya va dekompressiya vositalari (DivX,PCM)
- multimediali fayllar bilan ishlashga mo'ljallangan boshqa turli utilitalar

O'rgatuvchi dasturiy ta'minotlarning turlari juda ko'p bo'lib, ularning bir nechitasi imkoniyatlari bilan tanishib olamiz va ularning solishtirma ma'lumotlarini shakllantiramiz.

Snagit dasturiy ta'minoti o'rnatish uchun juda ixcham, tez o'rnatiluvchi, qo'shimcha serial raqamlarni talab qilmaydigan, tekin tarqatiladigan hamda unchalik katta bo'lmagan dasturiy ta'minotlardan biri hisoblanadi. Dastur ta'minoti alohida xususiyatga ega bo'lib, uni funksional tugmalarga biriktirish orqali ixtiyoriy vaqtda murojaat qilinishi mumkin. Dasturni ishga tushirilganda uni ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



Dasturni oyna ko'rinishidan ham bilish mumkinki, unda rasmga olish, mantnni belgilash hamda videoga olish imkoniyatlari mavjud. Faqat bu rejimlarni tanlash orqali ularni parametrlarida o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

SHuningdek, kompyuter oynasining ixtiyoriy joyini belgilab olish orqali rasmga olish, vidoetasvirga olish imkoniyatlari ham mavjud.

Bizga ma'lumki, o'rgatuvchi elektron qo'llanmalar yordamida foydalanuvchilarga bilim berishda foydalaniladigan eng yaxshi qurol hisoblanadi. 3D Max dasturida standart primitivlar yaratishni o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish uchun biz CamStudio dasturidan foydalanamiz. Buning uchun dasturni kompyuterga o'rnatamiz. Dastur o'rnatib bo'lingach ekranda CamStudio yorligi paydo bo'ladi. Bu yorliq yordamida dasturni ishga yuklaymiz va ekranda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi.



Bu yerdan capture – record tugmasini bosamiz ish tajriba stendini yaratishni boshlaymiz. Yaratilgan stendni saqlash uchun stop tugmasini bosamiz. Ekranda saqlash uchun taklif va bajarilgan ish ketma-ketligini kayta namoyish qilish uchun ruxsat suraladi. Agar OK tugmasini bossak, bizni tayyorlagan tajriba stendimiz ekranda to'liq namoyish etiladi.

Yaratilgan videodars mashg'uloti faylining kengaytmasi .avi bo'ladi. Bu kengaytmaga ega bo'lgan saxifani esa Internet Explorer orkali namoyish etish imkoniyati mavjud.

Camtasia Studio dasturi asosida multimediali qo'llanma yaratish ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi pedagoglar uchun juda qulay va maxsus tayyorgarlik talab qilmasdan bajariladigan ish. Camtasia Studio dasturini o'rganuvchilar uchun dasturiy vosita bilan ishlashni o'rgatuvchi maxsus video kursi ham mavjud.

Camtasia Studio dasturi ekranda bo'layotgan jarayonlarni yozib olish va saqlab qo'yish uchun ishlatiladi. Dastur to'rtta yordamchi qismlardan iborat:

Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater va Camtasia Recorder. Dasturning asosiy qismi Camtasia Recorder hisoblanadi. Barcha darslar aynan shu dastur yordamida yaratish imkoniyati mavjud.

Camtasia Studio dasturi oynasining pastki qismida timeline deb nomlanuvchi ishchi stoli mavjud bo'lib, u orqali audio va audio- vizual qo'llanma fayllar ustida turli xil amallarni bajarish mumkin. Bular jumlasiga fayllarni bir-biriga bog'lash, keraksiz qismlarni qirqib tashlash kabilar kiradi. Asosiy oynaning markazida dastur ishlashi mumkin bo'lgan fayllar ro'yxatini ko'rsatuvchi «Korzina klipov» qismi joylashgan (1-rasm).

SHu fayllarni o'ng tarafdagi audiovisual qo'llanma pleyrda ko'rish mumkin. Bu kichkinagina Camtasia Player dasturi faqatgina bitta vazifani bajaradi — AVI fayllarini namoyish etadi.




-rasm. Camtasia Studio dasturining asosiy oynasi

Ular kompyuter ekranidagi harakatlar, mikrofondan ovozlarni yozadi hamda kompyuterlar tushunadigan audio-vizual qo'llanma fayllar formatiga o'g'irib beradi. Bu vositalardan Camtasia Studio dasturi o'zining interfeysi, juda ko'plab formatlari, audio-vizual qo'llanma fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo'yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin. Dars yozish davomida ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko'rsatish imkoni ham mavjud. Ana shu afzalliklari tufayli audio-vizual qo'llanma darslar yozuvchi dastur sifatida Camtasia Studio hamda yozilgan audio- vizual qo'llanma fayllarni bitta interfeysga joylashtirish uchun Macromedia Flash dasturlari tanlandi.

Wink Dasturi

Multimediali qo'llanma yaratishda samarali foydalaniladigan dasturlardan biri Wink dasturi. Dastur dars namoyishi "Taqdimot" larini ekrandagi jarayonlarni rasm ko'rinishida saqlaydi hamda yaratilgan namoyishlarga matnli ma'lumotlarni kiritish imkoniyatlari mavjud.




-rasm. Wink dasturi ko'rinishi

Turli fayl formatlari jumladan EXE, FLV va boshqalarni qo'llash imkoniyati mavjud. Dastur Windows muhiti hamda Linux muhiti uchun ishlab chiqilgan.

Jing dasturi

Multimediali qo'llanma yaratishda foydalaniladigan dasturlardan yana biri Jing dasturidir. Jing dasturi yordamida nafaqat audio-vizual qo'llanma, ekran, bo'layotgan jarayonlarni ham tasvirga olish imkoniyati mavjud. Bularga qo'shimcha olingan rasmlarga kerakli joylarda turli hildagi matnli belgilar, mahsus yo'naltiruvchi strelkalarni, to'g'ri to'rtburchaklar yordamida kerakli joylarni ajratish, audio ma'lumotlarini yozish kabi funksiyalarni o'zida mujassam etgan. Windows hamda MacOS OT lari uchun ko'rinishlari mavjud. YOzib olingan audio-vizual qo'llanma va rasmlarni Internet tarmog'idagi Screencast.com, Flickr, Twitter hamda boshqa veb sahifalarga jo'natish mumkin.



-rasm. Jing dasturining asosiy oynasi ko`rinishi.

Webineria dasturi

Xozirda multimediali qo`llanma yaratishda foydalaniladigan dasturlarni juda ko`plab uchratishimiz mumkin ulardan yana biri Webineria –ochiq kodli dastur bo`lib, ekrandagi jarayonlarni audio vizual qo`llanma ko`rinishida saqlasb keyinchalik ko`rish uchun mo`ljallangan. YOzilayotgan audio-vizual qo`llanma fayllar avval AVI formatida saqlanadi keyinchalik zaruriyat tug`ilsa Fash FLV formatiga o`zgartirish mumkin. YOzilayotgan jarayonni boshlash hamda to`htatish mahsus tugmalar asosida bajariladi. Bularga qo`shimcha sifatida 2-xil ma`nba (ekran va Veb kamera) dan kelayotgan tasvirlarni birlashtirish imkoniyati mavjud.



-rasm. Webineria dasturi asosiy oynasi

Multimediali qo`llanmalar yaratishda foydalanadigan dasturlar taxlili 1- jadvalda keltirilgan.

YUqorida multimediali o`quv qo`llanmalarni yaratishga mo`ljallangan dasturlarni taxlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkoniyat berdi:

- Biz ko`rib o`tgan dasturlarni ichida **Camtasia Studio** dasturi bugungi kunda yig`ma elektron katalogdan foydalanish jarayonini foydalanuvchilarga o`rgatishga mo`ljallangan dasturiy vositalarni yaratish uchun qulay.
- Birinchidan dastur interfeysi Ingliz va rus tillarida.
- Jing, Wink, Webineria dasturlarining interfeysi Ingliz tilida bo`lganligi uchun ularni o`zlashtirish qiyin bo`ladi.
- Ikkinchidan o`zida AVI, SWF, FLV, MOV, WMV, RM, GIF va CAMV turdagi fayllarni chiqaradi.
- Uchinchidan yaratilgan video yozuvlarni taxrirlay oladi.
- Camtasia Studio yozilgan audio-vizual qo`llanma fayllarni bitta interfeysga joylashtirish imkoniyati ham mavjud.

Camtasia Studio dasturida yozib olingan video fayllarni taxrirlash imkoniyati juda qulay, Jing, Wink, Webineria dasturlarida video fayllarni taxrirlash imkoniyati cheklangan.

1-жадвал. Мультимедиали қўлланмалар яратишда фойдаланадиган дастурлар

Дастурлар	Дастурни ишлаб чикувчи	Операцио н тизим	Интерфейс тили	Чикувчи формат лари	Тахрирловчиси	Дастурни ўргатадиган воситалар
Camtasia Studio	Techsmith	Windows 2000, XP, Vista, 7	Инглиз ва рус	AVI, SWF, FLV, MOV, WMV, RM, GIF ва CAMV	Бор	Услубий қўлланма ва мультимедиали дарслиги бор
Jing	Techsmith	<i>Windows, Mac OS X</i>	Инглиз	EXE, FLV	Йўқ	Йўқ
Wink	Satish Kumar	<i>Windows, Linux</i>	Инглиз, француз , немис ва бошқа тиллар	EXE, FLV, HTML	Бор	Йўқ
Webineria	Tristana software	<i>Windows</i>	Инглиз	AVI, FLV	Йўқ	Йўқ

2.2. Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma`lumotlar

Freemake Video Converter – dastur bitta formatdagi media-faylni boshqa formatga oson o'girib beradi. Kiruvchi format sifatida 200dan ortiq turni foydalanuvchilar qo'llashi mumkin, shular qatorida AVI, MP4, MKV, WMV, MPG, 3GP, 3G2, SWF, FLV, TOD, AVCHD, MOV, DV, RM, QT, TS, MTS, MP3, AAC, WMA, WAV, JPG, BMP, PNG, GIF va h.k.. YouTube, Facebook, Hulu, MTV, Vimeo, Dailymotion, ComedyCentral, Megavideo va boshqalardan ishlab turgan vaqtda fayllarni qayta ishlash imkoniyati bor. Dastur iPod, iPhone, iPad, PSP, PS3 va Android turlariga tushadigan formatlarni hosil qila oladi va CD/DVD/BD larda yozishga taxt qiladi. Bir qancha qo'shimcha qulayliklar va imkoniyatlar mavjud.

Yangi versiyaga PS Vita va Xbox uchun sozlash amallari, aniqlangan xatoliklar tuzatilgan, interfeys qayta ishlangan.

Windows va Mac uchun Top 15 HD video converter

Turli texnologik qurilmalar ishlash va operatsiyalar bo'yicha turli qobiliyat va imkoniyatlarini ega. Ular bu turli asboblardan o'tadi, agar turli formatlarda kelib Videos, shunday, mos formatda aylanadi.

Internet bunday dasturlarni yuzlab bor va o'ng birini tanlab, faqat bir sinov va xato ish, chunki Afsuski, siz Windows yoki Mac qurilma uchun eng yaxshi video o'tkazish vositasi topish, zerikarli ish bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu erda Windows va Mac uchun eng yaxshi 15 HD video.

2.3. Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish

Kasb-hunar kollejlarda, akademik liseylarda Axborot texnologiyalari fan yo'nalishlarini o'qitish metodikasi ishlab chikish uchun albatta boshlang'ich ma'lumot sifatida bir necha vositalar talab qilinadi. YA'ni bu masalani hal qilish uchun eng birinchi navbatda eng zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanishi zarur. Ma'lumki, videofayllar bilan ishlovchi dasturlarning bir nechta versiyalari yaratilgan. Versiyani tanlashda esa, albatta kompyuter imkoniyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Biz Internet brauzerlari imkoniyatlarini hisobga olgan holda bugungi imkoniyatlardan kelib chiqib zamonaviy kompyuterlardan foydalanishni nazarda tutamiz.

Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish uchun asosan quyidagi texnik ta'minot talab qilinadi:

- Pentium III yoki Pentium IV tipidagi kompyuter;
- Operativ xotira kamida 256 mbayt;
- Doimiy xotira 10 Gegabayt atrofida;
- Prosessorning tezligi kamida 1 MHh bo'lgani ma'qul.

Ma'lumki, metodik manba yaratishda asosan ob'ektlar bilan bilan ishlanadi. O'z navbatida kompyuterning texnik tomondan juda ham soz va yaxshi tezlikka ega bo'lishini talab qiladi.

Texnik vosita sifatida kompyuterning asosiy qurilmalari hamda printer, skaner va CD ROM qurilmasini bo'lishi ish faoliyatiga ijobiy ta'sir qursatadi. CHunki skaner yordamida har bir talabaning rasmi va boshka kerakli ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi. Printer esa, tayyorlangan hisobotlarni Chop qilish uchun foydalaniladi. CD ROM qurilmasidan zaruriy axborotlarni olish va tashuvchi sifatida foydalanish mumkin bo'ladi.

Ushbu texnik vositalar ish o'rnini avtomatlashtirish va boshqaruv jarayonida operativ ma'lumot tayyorlash ishlarini yanada mukammallashtirish uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi.

SHuningdek, agar yaratiladigan elektron o'rgatuvchi dasturiy ta'minotdan elektron kutubxonalarga hamda Internet saytlariga bog'lash uchun moslashtirilsa, HUP qurilmasi, Internet tarmog'iga ulanish uchun zarur bo'lgan barcha texnik vositalar hamda videoproektorlar bo'lishi foydadan holi emas.

3-bob. Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish

Bitiruv malakaviy ishining ushbu bobida asosiy vazifalar amalga oshiriladi. Xususan, Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish va Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi qurish amalga oshiriladi. SHuningdek, yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish yo'riqnomasini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

3.1. Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi

Biz yuqorida Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi elektron qo'llanma yaratish bo'yicha barcha ma'lumotlarni keltirib, ma'lum bir strukturani ishlab chiqdik. Qolaversa, bu elektron dasturiy mahsulot yaratish uchun foydalaniladigan vositalar bilan tanishib utdik. Endigi asosiy vazifamiz, mana shu keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslangan holda elektron dasturiy mahsulot yaratishni texnologiyasini ishlab chiqishni boshlaymiz.

Ma'lumki har bir yaratilgan elektron qo'llanma o'zining ichki strukturasi ega bo'ladi. Lekin elektron qo'llanma uchun umumiy bo'lgan bosqichlar mavjud bo'lib, bu bosqichlarni quyidagicha keltirib o'tish mumkin:

- **YAratiladigan elektron dasturiy mahsulot bo'yicha zaruriy axborotlarni to'plash.**
Bu bosqichda berilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlar to'planadi. Bu ma'lumotlarni Word redaktori yordamida kompyuterga kiritib, ma'lum bir formatga solinadi. SHuningdek barcha ma'lumotlarni tayyorlab olingach keyingi bosqichga o'tiladi.
- **YAratiladigan elektron dasturiy mahsulotning umumiy strukturasi hosil qilish.**
Bu bosqichda yaratiladigan Web ilova uchun shablonlarni tayyorlanadi. Bu shablonlarni ilovani yaratayotgan dizayner hamda programmistning mahorati bilan ham bog'lash mumkin. CHunki, dasturiy vositalarning o'zida ham maxsus shablonlar mavjud bo'lib, bu shablonlardan foydalanish yoki yangi shablon yaratish ham mumkin.
- **Ilovaga tegishli saxifalarni o'zaro boglash.**
Bu bosqichda xar bir yaratilgan saxifani bir-biri bilan o'zaro boglab, ilova uchun zanjir xosil qilinadi.
- **Ilovaga dizayn berish bo'limi.**
Bu bosqichda xar bir saxifani dizayn jixatdan yanada kuchaytiriladi, qo'shimcha bezaklar beriladi.
- **YAratilgan elektron dasturiy mahsulotni tekshirish.**
Bu bo'limda yaratilgan qo'llanmani nazoratdan o'tkazib, ishlash jarayoni tekshiriladi. Bu tekshirishning eng qulay usuli bu ilovani boshqa kompyuterda ishlatib ko'rish va o'zaro bogliqlarini tekshirib chiqish xisoblanadi.

Biz mavzu bo'yicha yaratiladigan elektron dasturiy mahsulotni yaratishimiz uchun boshlangich ma'lumot sifatida quyidagi bo'limlarni struktura uchun ajratib olamiz: boshlanish saxifasi, Freemake Video Converter, didaktik vositalar, nazariy ma'lumotlar, amaliy urgatish, dasturni urnatish, konverterlash, amaliy kunikma olish, Muallif.

Bu yaratilgan sxema asosida Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot ishlab chiqamiz. SHuningdek, elektron dasturiy mahsulotni yaratishda ekranni uchta kismga ajratib olamiz. Uning kismalarini quyidagicha uch qismli blok shakliga keltirishimiz mumkin:

1. Giperishoratlarga ega bo'lgan nomlarni keltirib o'tamiz
2. Banner kismi bulib, unada bajarilayotgan ish mavzusining nomini keltirib o'tamiz
3. Asosiy oyna sifatida kabul kilib, unda yukoridagi giperishoratlar orqali chaqirilgan saxifalarni mana shu oynada namoyish kilishni tashkillashtiramiz

Endi elektron o'rgatuvchi dasturiy vositaga oid ma'lumotlarni bir nechta kismalarga ajratamiz. YA'ni, Freemake Video Converter haqida, Ishchi oynasi bilan, ishlash, Dasturni o'rnatish, Tavsiya etiladigan manbalar va foydalanuvchilar uchun adabiyotlarni tavsiya etish bulimlarini tashkil kilishni nazarda tutamiz. Endi bu bulimlarni quyidagi ketma-ketlikda keltirib o'tamiz:

1. Freemake Video Converter haqida

2. Ishchi oynasi bilan ishlash
3. Dasturni o`rnatish
4. Videodarsliklar
5. Tavsiya etiladigan manbalar

Kitoblar

Internet saytlari


Mustaqil o`rganuvchilar uchun kitoblar

Ularni bogliklik darajalari buyicha esa, sxema kurinishini ifodalab olamiz, ya`ni ularni bogliklik strukturalarini quramiz. Bu kurinishni quyidagicha keltirib o`tishimiz mumkin:



Endi mana shu keltirib o`tilgan strukturalarni asos sifatida kabul kilib, elektron dasturiy vositani yaratishni boshlaymiz.

1. Elektron dasturiy vositani yaratish uchun barcha ma`lumotlarni keltirib utilgan strukturaga moslashtiramiz
2. Keltirilgan strukturani shablonini ishlab chiqamiz
3. SHablonda keltiriladigan har bir saxifani o`zaro bogliklik sxemasini ishlab chiqamiz. Biz yaratayotgan dasturiy vositani uchun bu strukturaning kurinishi kuyidagicha buladi.



4. Xar bir saxifani dizayn jihatidan ishlab chiqamiz. Turli rasmlar va ranglar bilan bezatamiz
5. Dasturga animasion namoyishlar, videodars ishlanmalari va mashqlarni tayyorlaymiz
6. Yaratilgan animasion dasturlarni saxifaning kerakli bloklariga boglab chiqamiz
7. Dasturni tahlil qilib, nazoratdan utkazamiz, ya'ni boshka kompyuterlarga kuchirib ishlatib kuramiz.
8. Tarmokda sinovdan utkazib kuramiz.

Endi mana shu yaratilgan saxifani keng foydalanuvchi ommasiga tavsiya etib, kolgan kamchiliklarni kayta kurib chiqishga xarakat kilamiz va uni takomillashtirish buyicha zaruriy tavsiyalarni inobatga olib, uni takomillashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqishimiz mumkin bo`ladi.

3.2. Yaratilgan dasturiy ta`minotdan foydalanish yo`riqnomasi

Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan “Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o`rgatuvchi dasturiy ta`minot yaratish” mavzusidagi masalani yechish natijasida yaratilgan mahsulotni ishga tushirish uchun uning tarkibiga kiruvchi dasturlarni keltirib o`taylik. Ular: video1.mp4 hamda movie.exe fayllaridan tashkil topgan. Dasturni ishga tushirish uchun movie.exe fayl ustida sichqoncha tugmasini 2 marta bosamiz va dastur ishga tushiriladi. Ekranda esa, quyidagi 1-rasmdagi ko`rinish hosil bo`ladi:



Rasm 1


Bu yaratilgan mahsulotning bosh oynasi hisoblanadi. U yerda sichqoncha tugmasini bosish orqali keyingi sahifani ochamiz. Bu sahifa quyidagi 2-rasmdagi ko`rinishga ega.

FREE MAKE VIDEO CONVERTER DASTURI IMKONIYATLARINI O'RGANISH

- FreemakeVideoConverterFull 4.1.9.12 dasturini o'rnatish
- Video faylni Mp4 formatidan Avi formatiga o'tkazish
- Video fayldagi keraksiz joylarni qirqib tashlash


Rasm 2

Bu dasturni asosiy mundarijasi bo'lib, uni har biri alohida o'rgatuvchi qismlardan tashkil topgan. Birinchi dasturni ishga tushirsak, ekranda quyidagi 3-rasmdagi ko'rinish hosil bo'ladi.




Rasm 3

Bu yerda dasturni ishga tushirish oynasi keltirib o'tiladi. Keltirilgan dasturni ishga tushirib quyidagi 4-rasmdagi ekran ko'rinishini hosil qilamiz.




Rasm 4

Bu yerdan dastur tilini tanlash va OK tugmasini bosish yetarli bo`ladi. Ekranda esa, quyidagi 5-rasmdagi oyna ko`rinishi hosil bo`ladi.




Rasm 5

Bu yerdan “Dalee” tugmasini bosish va keyingi oynani 6-rasmdan ko`rish mumkin.




Rasm 6


Bu yerdan dasturni o`rnatish boshlanadi va quyidagi ko`rinishdagi oynalar hosil bo`ladi, ulardagi tegishli tugmalarni bosamiz va dasturni o`rnatamiz.




Rasm 7




Rasm 8




Rasm 9




Rasm 10




Rasm 11




Rasm 12




Rasm 13



Rasm 14




Rasm 15





Rasm 16



Demak, 7-16-rasmlarda keltirilgan ketma – ketlik asosida dasturni o`rnatiladi. Ortg qaytish uchun, “Menyuga qaytish” tugmasini bosish yetarli bo`ladi.



O`rnatilgan dastur asosida videofayllarni konverterlash uchun esa, 2-rasmdagi menyudan 2 – mundarijani tanlanadi. Ekkranda esa, 17-rasmda keltirib o`tilgan ko`rinish hosil bo`ladi.



Bu yerdan rasmda keltirilgan yo`nalishlar bo`yicha tugmalarni bosib Freemake Video Converter dasturi yordamida video fayllarni konverterlash amalga oshiriladi. Bu jarayon qo`yidagi rasmlarda keltirib o`tiladi:
















Endi videokonverterlashda keraksiz joylarni olib tashlash uchun 2 rasmda keltirib o`tilgan 3 bo`limni tanlaymiz. Ekkranda qo`yidagi ko`rinish sodir bo`ladi.



Videodagi keraksiz joylarni qirqib olish jarayonini qo`yidagi rasmlarda keltirib o`tilgan ko`rsatikichlar orqali amalga oshiriladi.







Dasturni ishini yakunlash uchun ALTQF4 tugmasini bosish yetarli bo`ladi.

3.3. Video va video fayllardan tajribada foydalanish

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni video va video fayllarni tajribada ishlatish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma'lumotlar:

Kamera yordamida 2 o'lchamli tasvirlarni shakllantirish mumkin. Demak kamera raqamli va analog bo'ladi. Kompyuterdagi video faqat raqamlidir.

Video va to'xtatilgan tasvir

Vaqtning o'zgarishiga qarab tasvir xam o'zgaradi. Freym videoning to'xtatilgan bir bulagi.

Kenglik. Birlik vaqt ichida ma'lumotni jo'natish va qayta ishlash qobiliyati. Kenglik qiymati katta bo'lsa yanada videoni yaxshiroq ijro eta oladi. 24 bit TRUE rang bo'lgan 640X480 resolyushinli tasvirni 30 freym/soniya tezlik bilan ijro etilganda kenglikni xisoblang. $(640 \times 480 \times 24 \times 30) / 8$ bayt/soniya q 27 Mbayt/soniya bo'ladi.

NTSC AQSHlarida rangli va oq-qora tartibni birga ishlatib bo'ladigan qo'shma usuldir. U eng keng tarqalgan foydalanish usulidir.

PAL yevropadagi tashkilot yaratgan maxsus usuldir.

SECAM - NTSC va PAL usullaridan farq qiluvchi usuldir. Ushbu usulda rang stabil bo'ladi. Jo'natuvchi va qabul qiluvchi murakkabdir. Qurilmaning zichligi va namoyish kengligi kichrayadi. Oq-qora TV bilan ma'lumot olib bo'lmaydi, faqatgina rangli TV bilan ma'lumot oladi. Ushbu usulni Fransiya yaratgan.

HDTV – avvalgi TVning vertikal yeki gorizontal imkoniyatini ko'paytiradigan TV usuli. AQSHda HDTV, NTSC bilan birgalikda qo'llaniladi. yevropada HDTV, PAL bilan birgalikda foydalaniladi. Yaponiya mamlakati HDTV usulidan foydalanib yuqori sifatli TV xizmatini ko'rsatmoqda.

Kompyuter video signal. RGBning 3 xil rangini ifodalashda ushbu usuldan foydalaniladi.

Video – kamera yordamida rasmga olib uni taxrirlash natijasida yaratiladi.

Animasiya – sun'iy ravishda kompyuter yordamida yaratilgan.

AVI (Audio Video Interleaved - .avi). Windowsda birinchi bo'lib foydalangan format. Audio va video mazmunini o'zida saqlaydi. Xajmi katta bo'lganligi sababli veb brauzerda uni qo'rib bo'lmaydi. Uni qo'chirib olib keyin ko'rsa bo'ladi.

Streaming video format. AVI fayli kabi uni veb saxifada ko'rish uchun to'liq ko'chirib olish shart emas.

Vebga asoslangan Streaming video format. VODLive, VIVO Active, RealMedia.

MPEG: Motion Picture Experts Group, *.mpg kengaytmasi shaklida bo'ladi.

MPEG-1: VHS tape, 1.5MB/s

MPEG-2: HDTV, 3~4MB/s - merged with MPEG3

MPEG-4: multi-media communication /64Kbps

MPEG-7: for searching the multi-media data(MMDB)

MPEG-21: multimedia framework standard for multi-media contents commerce (MM contents creation, transaction, management, consumption)

QuickTime - Apple firmasi yaratgan Macintosh/Windows Multimedia System expansion File.

*.mov Quick Timedan foydalangan fayl format. AVI bilan birga kodekdan foydalaniladi. Macintosh va Windows muxitining barchasida foydalanish mumkin. Boshka uskunaviy ta'minot bo'lmasa xam videoni ko'rish mumkin.

FLI/FLC fayli. Autodesk firmasiining Animation fayl formati. Dunedagi eng birinchi Animation fayl. Ovoz chiqmaydigan, ammo 320x200 o'lchamli ekranda 256 xil rangli bir soniyada 10 ta freym tezligida bo'ladi.

Adobe Premiere dasturi. FLI/FLC File $\diamond$ AVI o'zgarish imkoniyati, AVI yeki GIF File $\diamond$ FLC yeki FLI ga o'zgarish imkoniyati

Nazorat savollari:

1. Video tushunchasi.
2. NTSC usuli.
3. PAL usuli.
4. SECAM usuli.
5. HDTV usuli.
6. AVI formati.
7. Streaming video format.
8. QuickTime formati.
9. FLI/FLC fayl formatlari.

Topshiriq variantlari:

1. NTSC usulini o`rganib chiqing.
2. PAL usulini o`rganib chiqing.
3. SECAM usulini o`rganib chiqing.
4. HDTV usulini o`rganib chiqing.
5. AVI formatini o`rganib chiqing.
6. Streaming video formatni o`rganib chiqing.
7. QuickTime formatini o`rganib chiqing.
8. FLI/FLC fayl formatlarini o`rganib chiqing.

Ishni bajarish tartibi:

1. Internet, Multimedia sohasida faoliyat olib boruvchi rivojlangan davlatlarning ta`lim maskanlarida yaratilgan adabiyotlardan foydalanib ma`lumot izlash va to`plash.
2. To`plangan ma`lumotni o`zlashtirish va asosiy mazmunini ajratib olish.
3. Xisobot shaklida elektron va qog`oz variantda topshirish.

4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi

4.1. O`rgatuvchi dasturlar bilan ishlaganda kompyuter xonasiga bo`lgan gigienik talablar va uning yoritilishi

Foydalanuvchini EXM ishchi stolida tugri utkazish organlar va organizm sistemasining normal ishlashiga sharoit yaratib, umurtka pogonasi buzilishining, kuz nuri pasayishining oldini olishga, soglikni va yaxshi mexnat kobiliyatini saklashga yordam beradi. Bu maksadda, foydalanuvchining poyafzal bilan birgalikdagi buyi uzunligiga mos ravishda sto va stullar tanlanishi kerak.

Foydalanuvchi vidiomonitor ruparasidan bukilmadan tugri burchak xosil kilishi va klaviaturali stol kiya sirtiga tayanishiga, bu bilan yelka va kul mushaklaridagi statik tolikishning oldi olinadi. Stol utirgichining kirrasi stolning foydalanuvchi tomonidagi kirrasidan 5-7 sm ichkari kirishi kerak, tizza va boldir bilan xosil kilinadigan burchak $90 - 120^0$ gradus bulishi, oyok poshnalari pol yoki oyoklar uchun kuyilgan vositaga tiralishi mumkin. Bosh oldinga 15^0 dan kup bulmagan burchak bilan oldinga egilishi mumkin.

Foydalanuvchi nigoxi vidiomonitor ekrani urtasidan xayolan utkazilgan vertikal yuzadan 10^0 dan ortik bulmagan chetlanishga ega bulishi kerak.

Kuz darajasi vidiomonitor ekrani balandligining markazida, ekran markazidan utuvchi gorizontal yuzadan optimal kurish, 15^0 chegarasida, chegaraviy kurish, 30^0 bulishi kerak. Videomonitor ekrani cheka nuktalaridagi axborotni kurishdagi, nigox chizigi va ekranning chap yoki ung kirralaridagi axborotni karash burchagi 45^0 dan kichik bulmasligi kerak.[8]

Foydalanuvchining kuzining monitor ekranigacha optimal masofasi 60 -70 sm, xech bulmaganda 50 sm dan kam bulmasligi kerak. Ekrangacha 50 sm dan kichik masofaga ishlash tavsiya etilmaydi, chunki bu kuzning tez charchashiga, kizarishga, achishiga va xokazolarga olib keladi, keyinchalik esa bu xolat normal bulishiga, fakat yakindagina kura oladiganlarga esa kasallikning kuchayishiga olib keladi. Urta darajadagi yakindan yoki uzokdan kura oladigan foydalanuvchilar vidiomonitorida ishlashda EXM ekranida 60 - 70 sm masofaga axborotni ajrata olish uchun kurishni tiklovchi kuzoynaklarda ishlashlari kerak.

Bunda EXM ekranida belgilarni karash burchagi 20 burchakli minutlardan kam bulmasligi kerak.

EXMdan foydalanib, mashgulotlar utkazishning samarali rejimi videomonitorida uzluksiz ishlashning belgilangan uzunligiga, tanaffuslarga, shuninndek foydalanuvchilar sogligini ximoya kilishga yunaltirilgan profilaktik tadbirlarni rioya kilishni talab kiladi. SHaroitlarga, ishchi urinlarni tashkil kilinishiga, foydalanuvchilarni utkazishga buladigan gigienik talablarga rioya kilgan xolda EXMda ishlash vaktining uzunligi, foydalanuvchining yoshi ishni boshlash vakti, tanaffuslar uzunligi, shunungdek ularning konstruktivlik xususiyatlari bilan boglik buladi.

Dars vaktida bir yunalishga karatilgan jismoniy tanaffuslar utkazish mumkin.

Darslar urtasidagi tanaffus 10 minutdan kam bulmasligi kerak. Oliy ukuv yurtlarida vaktning 50 % ni nazorat mashgulotlariga va 50 % ini Amaliy mashgulotlarga ajratish kerak.

Ish rejimi profilaktik tadbirlar utkazish talablariga mos ravishda tashkil kilish kerak.

Talabalarning darsdan tashkari EXMda ishlash vakti 3 soat bilan, 16 yoshdan kichik bulganlar uchun 2 soat bilan cheklangan bulshi kerak.

Talabalarning darsdan tashkari EXMda ishlash vakti 3 soat bilan cheklangan bulshi kerak.

Bunda profilaktik tadbirlar utkaziladigan ish rejimiga rioya kilishi kerak.

Kuz uchun mashklar xar 20 -25 minutdan keyin fizik mashklar, 45 minutdan keyin tanaffus vaktida bajarilishi kerak.

EXMda kushimcha ish vakti ukuv mashgulotlari tugaganidan keyin 1 soatdan kam bulmagan vaktda tashkil kilinishi kerak. Bu vakt dam olish va ovkatlanish uchun ajratilishi kerak. Bunday tanaffusdan keyin foydalanuvchining funksional xolati mashgulotlarning 1 – darajasigacha buladigan xolatiga yakinrok darajada tiklanadi.

Kuz uchun, organizm uchun belgilangan mashklar tanaffuslar e`tiborsiz karash mumkin emas, chunki ularni utkazish, kurish analizatori, markaziy asab, yurak tomir, nafas, mushak va organizmning boshka sistemalari funksional xolatini yaxshilaydi,

tananing kuyi yarmidagi, oyokdagi, utirib ishlash natijasida xosil buladigan uyushib kolish xolatlarini yukotishga yordam beradi, miya kon aylanishni yaxshilaydi.

Kompyuter xonasining jixozi 10-15 tagacha SHaxsiy kompyuter (o`quvchining ish joyi) va bitta o`qituvchi ish joyidan tashkil topadi. Xonaning tarkibiy qismi-orgtexnika va "Kompyuter savodxonligi asoslari" fani bo`yicha nazariy va amaliy darslar, darsdan tashqari fakultativ mashgulotlar o`tkazish uchun xizmat qiladi. Xamma o`quvchilar va o`qituvchilar, to`garak a`zolari va boshqa foydalanuvchilar SHaxsiy kompyuterda ishlashdan avval majburiy ravishda texnika xavfsizligi bo`yicha ko`rsatmalar bilan tanishgan va bu o`z navbatida jurnalda qayd etilgan bo`lishi kerak.

Ushbu mashgulot o`quvchi salomatligiga bevosita bogliq bo`lganligi uchun quyidagi ko`rsatmalarni xamma o`quvchilarga tanishtirib, imzolatib qo`yishni tavsiya etamiz. Matn kompyuter xonasining ko`rinarli joyiga osib qo`yilishi maqsadga muvofiq.

Xonadagi xavo xarorati o`rtacha 20-24° S atrofida bo`lishi lozim.

O`quvchilarining shaxsiy kompyuter bilan uzluksiz ishlash vaqti bir kun davomida 4 soatdan oshmasligi tavsiya etiladi. O`quvchi kompyuterdan eng kamida 40 sm narida o`tirishi kerak.

Agar bino bir qavatli bo`lmasa, kompyuter xonasi birinchi va oxirgi qavatlarda bo`lmagani ma`qul. Birinchi qavatda shovqin-suron tovush eshitilishi, chang-to`zon tushishi hamda o`girlik sodir etilishiga qulay sharoitlar mavjud bo`lishi mumkin. eng YUqori qavatda bo`lsa ham qaznoq orqali o`gri tushishi, qor-yomgir suvlari o`tishi, quyosh nuri tik tushib, xona haroratini ko`tarib yuborishi mumkin.

Kompyuterlar o`rnatilgan xona polli, devorlar suv qo`shib ishlatiladigan bo`yoqda bo`yalgan, albatta erga ulangan signallashtirilgan, eshik va oynalar temir panjaralar bilan mahkamlangan bo`lishi shart. Butun xona EXM xonasiga mos ravishda jihozlangan bo`lishi kerak.

Kompyuter xonalariga quyosh nuri tik tushadigan bo`lsa, oynalarda xonani qorongilashtiruvchi qora darpardalar ham bo`lishi lozim. Kompyuterlarning barcha qurilmalari giloflar bilan qoplangan holda turishi kerak. Xonada haroratni o`lchab turuvchi xona termometri, kompyuterlar uchun himoya oynalari bo`lishi zarur,

xonada 20-24 gradusli (ko'pi bilan 28 gradusgacha) temperatura saqlanishi lozim. Agar xona harorati keragidan oshib kesa yoki pasayib ketadigan bo'lsa, xona xaroratini mo'tadillashtirib turuvchi kondisioner bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Xonada kaktus, aloy kabi tikanli o'simliklarning bo'lishi inson salomatligi uchun foydali.

Kompyuterdan foydalanuvchi har bir shaxs texnika xavfsizligi qoidalaridan xabardor bo'lmogi lozim. Ochiq simlar, ochiq yoki noqulay rozetkalar bilan ishlamaslik kerak, inson salomatligiga xavf tugdiruvchi biror hid yoki boshqa biror belgi sezilsa, darhol rahbarni xabardor qilish kerak. Imkoniyat bo'lsa, kompyuterdan foydalanuvchilar oq xalat kiyib shugullansalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4.2. Ish joyi va u yerda ishlash sharoitini tashkil qilish

Ish joyi — xodim yoki xodimlar guruhi mehnat faoliyatini o'taydigan zonadir. Ish joylari shaxsiy va jamoaviy, universal, maxsus va maxsuslashtirilgan bo'lishi mumkin. Ish joylarini loyihalashtirishda quyidagi umumiy talablar bajarilishi kerak:

- inson uchun yetarli ish bo'shlig'ining bo'lishi;
- xodim tanasining optimal holati;
- inson va mashina orasida yetarli fizik, kuzatish va eshitish aloqasining bo'lishi;
- binoda ish joyining optimal joylashtirilishi;
- ishlab chiqarish omillari ta'sirining ruxsat etilgan darajalarda bo'lishi, axborot maydonining optimal joylashtirilishi;
- ishlab chiqarish xavflaridan himoya vositalarining majudligi.

Loyihalashtirish ish joyi axborot maydoni zonasini optimal va oson yetishni ta'minlashi kerak. Gorizontga nisbatan kuzatish burchagi $30-40^{\circ}$ bo'lishi kerak.

Ish holatini tanlashda inson sarflaydigan kuchanishni, harakat qadamini, siljish zaruratlarini va operatsiyalar tezligini, shuningdek, inson fiziologiyasini e'tiborga olish kerak.

Ish joyini tashkil etishda va qurilmalarni loyihalashda xodimning optimal holatini ta'minlash uchun alohida elementlarni rostdash imkoniyatlari ko'zda tutiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish va avtomatizasiyalashtirishning keyingi rivojlanishida boshqariladigan ob'ekt haqida axborotni akslantirish vositalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshqariladigan ob'ekt holati haqida ma'lum axborot koidalari bo'yicha tashkil etilgan axborot modellari keng qo'llanilmokda. Axborot modellariiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Axborot modelining tarkibi boshqariladigan ob'ektni aniq kursatishi kerak;
- Axborot modeli optimal axborot balansini ta'minlashi kerak;
- Axborot modelining shakli va kompozitsiyasi ish jarayoni vazifasi va axborotni qabul qilish bo'yicha xodimning imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

Axborot modelini loyihalash jarayonida axborotni akslantirish vositalarining ish joyida joylashtirish o'рни, belgilarning o'lchamlari va ularning kompanovkasi tanlanadi. Axborotni akslantirish vositalari xodimning ko'rish maydonida optimal burchaklar va kuzatish zonasini e'tiborga olgan holda joylashtiriladi. Kuzatish belgilarining o'lchamlari axborotni qabul qilish maksimal tezligi va aniqligini, shuningdek, belgilarning ravshanligini, yorqinlik qiymatini, rangdan foydalanishni e'tiborga olgan aniqlanadi.

Ish joyini loyihalashda harakatlarni tejash koidalari e'tiborga olinishi kerak, ya'ni ikki qo'lda ishlashda ularning harakati bir vaqtda va simmetrik bo'lishi kerak, harakatlar esa yumshoq, ritmli va xodim uchun odatiy bo'lishi kerak. Qurilmaning konstruksiyasida ish harakatlari aniqligi va tezligi e'tiborga olinishi kerak

Operator aloqachi (dispetcherlikdagi operator) avtomatlashtirilgan ish joyida, asosan, quyidagilardan foydalaniladi:

- Personal foydalaniladigan axborotni akslantirish vositalari (akslantirish bloklari, signalizasiya qurilmalari va h.k.);
- Axborotlarni kiritish va boshqarish vositalari (display pulti, klaviatura, boshqarish organlari va x.k.);
- Aloqa va axborotlarni uzatish qurilmalari (modemlar, telegraf va telefon apparatlari);
- Axborotlarni saqlash va hujjatlashtirish qurilmalari (orgtexnika jihozlari, axborotlarni saqlash vositalari, mahalliy yoritish qurilmalari va h.k.).

Ish zonasida xodim o`rindig`i va texnik vositalarning joylashtirilishi asosiy funksional qismlar va apparatura bloklariga texnik diagnostikani, profilaktik ko`rish va tuzatish uchun qulay yetishni ta`minlashi kerak.

Kuzatish masofasi 700 mm dan ortiq bo`lmasligi uchun display stol yoki taglikka o`rnatilishi kerak (optimal masofa 450 - 500 mm).

Ionlashgan va radiasion nurlanishlar va ulardan himoya

Ionlashgan (radiasion) nurlanishlar rentgen nurlanishlari, α , β , γ – nurlanishlar hisoblanadi.

α , β , γ – nurlanishlar manbalari radioaktiv moddalar hisoblanadi va ular aloqa sohasida nazorat-o`lchov apparaturalarida, yong`in signalizatsiyasi sistemalarida ishlatiladi.

Rentgen nurlanishlari (o`nlab kilovolt) yuqori kuchlanishli elektrovakuum asboblari vujudga keladi. Bu yugurma to`lqin lampalari, elektron nurli trubkalardir.

Nurlanish ta`sirida organizmda moddalar almashishi buziladi, ichki sekresiya bezlari, qon-tomir organlarga zarar yetadi. Natijada umumiy va mahalliy shikastlanishlar shaklida o`tkir va surunkali nurlanish kasalligi rivojlanadi.

Umumiy – leykemiya (oq qon).

Mahalliy – xatarli shishlar, teri kasalliklardir. Ionlashgan nurlanish to`qimalarning genetik kodiga ta`sir etadi, oldini olib bo`lmaydigan o`zgarishlarni keltirib chiqaradi, keyingi avlodlarga o`tishiga olib keladi.

Insonning **shikastlanish darajasi** yutilgan doza, nurlanish turi, ta`sir vaqti, individual ta`sirlilikka bog`liq.

Radiasion xavfsizlik normalari bo`yicha belgilangan dozalar o`rnatilgan:

- (A toifa) ionlashgan nurlanish manbaida bevosita ishlaydigan shaxslar uchun (doza 3 berdan oshmasligi kerak);
- (B toifa) nurlanish manbailar yaqinida ishlaydiganlar uchun (doza 0,5 berdan oshmasligi kerak);
- (V toifa) umuman butun aholi uchun (doza 0,05 berdan oshmasligi kerak).

Qator **texnik va tashkiliy** tadbirlar yordamida ionlashgan va radiasion nurlanishlar tasiridan himoyalaniish mumkin.

Texnik choralar sifatida ekranlashtirish, germetizatsiyalash va masofadan boshqarish.

Individual himoya vositalari – xalatlar, kombinezonlar, bosh kiyimlari, shlemlar, rezina qo`lqoplar, ko`zoynaklar, respiratorlar, maxsus havo uzatadigan pnevmo-kostyumlar.

Individual himoya vositalari alfa-nurlanish ta`sirida samarali va gamma-nurlanish ta`sirida kam samara beradi.

Muntazam himoya vositalari dezaktivatsiya qilinadi. Radioaktiv moddalar va ionlashgan nurlanish manbalari bilan ishlovchi shaxslar qo`shimcha imtiyozlardan foydalanadi (qisqartirilgan ish haftasi, qo`shimcha ta`til).

Xulosa

Men ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va yozish jarayonida Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish va uni kasb-ta'limi yo'nalishidagi talabalarga qo'llash natijasida talabalarga bilim berish uchun elektron qo'llanmalardan foydalanib dars samaradorligini oshirishga erishish mumkinligini o'z ishimni bajarish jarayoni ko'rib o'tdim. SHuningdek, talabalarga doimiy ravishda bilim berib borishda elektron qo'llanmalarni yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish lozimligi, shuningdek dasturni yanada takomillashtirish va yangi loyixalarini yaratish bo'yicha zaruriy tasavvurlarni oldim.

- Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili
- Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalar tahlili
- Multimedia ma'lumot formatlarini almashtirish dasturlari va ularning solishtirma tahlili
- Masalaning qo'yilishi
- Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalar
- O'rgatuvchi dasturiy vositalar, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlari
- Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma'lumotlar
- Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish
- Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish
- Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi
- Yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish yo'riqnomasi
- Xayot faoliyati xavfsizligi
- Videokonverter dasturlari bilan ishlaganda foydalanuvchi ko'ziga bo'ladigan asosiy ta'sirlar va ularni oldini olish

YUkorida keltirib utilgan Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minotdan oliy ta'lim muassasalarining Informatika va axborot texnologiyalari ta'lim yunalishi buyicha ukiyotgan talabalar, maxsus kurslarda ukiyotgan mustakil urganuvchilar xamda kasb-xunar kollejlarining o'qituvchilari va ukuvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan holi etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kelgusida bu ishlarimni davom ettirib, zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga bilim berish uchun albatta turli xil fanlardan elektron sahifalar, elektron qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar yaratib, talabalarning bilimini yanada mustahkam bo'lishida o'zimni olgan bilimlarim bilan javob berishga harakat qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim tugrisida»gi konuni, 1997 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.—Toshkent:«O'zbekiston», 1998.—528b.
3. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.(O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim To'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar).—T.: «SHark», 1998.—64 b.
4. Raxmonqulova S. I. IBM RS shaxsiy kompyuterida ishlash.—Toshkent, 1998. —224 b.
5. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. (O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar).-T.: «SHarq», 1998.-64 b.
6. Uzbekiston Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi. Uzbekiston Respublikasi folk ta'limi vazirligi, Uzbekiston Respublikasi Davlat matbuot kumitasi tomonidan yaratilgan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun ukuv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish» konsepsiyasi.
7. Axborotlashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 yil 11 dek. //Xalq so'zi. — 2004. — 11 fevr.
8. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011 yil 13 apr. //Xalq so'zi. — 2011. — 13 apr.
9. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot- kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida:
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2002 yil 6 iyun //Toshkent oqshomi. — 2002. — 10 iyun.
11. Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–381 Qarori. 2006 yil 20 iyun //Ma'rifat. — 2006. — 21 iyun.
12. “2011-2015 yillarda axborot kommunikasion texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va aborot resurslar bilan xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2011 yil 23 fevr. PQ -I487.
13. Karimov I. A. "Inqirozga qarshi choralar dasturlarining samaradorligi va inqirozdan keyingi rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari (O'zbekiston misolida)": mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga : Tabrik / I. A. Karimov // Muhofaza : Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy jurnal. - Toshkent : Yoshlar matbuoti. - 2010. - № 4. - B. 2-3 (SHifr M640606/2010/4). Darslik va o'quv qo'llanmalar:
14. SHrayberg YA. L. Elektronno'e biblioteki Rossii: programmaya strategiya i proektnaya taktika //Nauchno'e i texnicheskije biblioteki. - 2001. -№2.- S. 69-75.
15. Voroyskiy F. S. Osnovo` proektirovaniya avtomatizirovanno`x bibliotechno-informasionno`x sistem. - M: FIZMATLIT, 2002. — 384 s. - Predm. ukaz.: s. 368-376. 81
16. Brodovskiyy A. I. Sistema avtomatizatsii bibliotek IRBIS; itogi razvitiya za god/ A.I. Brodovskiyy, S.M. Dunaevskaya //Nauchno'e i texnicheskije biblioteki. (NTB)..- 2002. - №2 - C. 17-21 (SHifr J-448/2002/2).
17. Antopolskiy A. B. Lingvisticheskoe obespechenie elektronno`x bibliotek. - M.: Informregistr, 2003. - 302 s.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

18. Xundibaev A.M., Eshkabilov R.L. “Multimedia elektron resurslari yaratish texnologiyalari”// “Elektron kutubxona tarmoqlarida ilmiy- ta'limiy axborotlarni yaratish va ulardan foydalanish texnologiyalari”to'plami, T.: E-Line-Press, 2013 – 69-80 c..
19. Xundibaev A.M., Muxammedieva D. O'quv filmlari yaratish texnologiyasi /"ICTNews" jurnali №1-2013, 34-35 s.
20. Xundibaev A.M. Elektron resurs: Madaniy meros va qadriyatlarga bag'ishlangan multimedia mahsulotlari /"Kutubxona.uz" jurnali №4-2010, 15-19 b.
21. Xundibaev A.M. Qanday elektron darslik kerak? /"Maktab va Hayot" ilmiy-metodik jurnali №3-2012, 12-13 s.
22. Karimov U. Axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlari va kutubxonalar uchun dasturiy ta'minot: Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT-M) //Elektron kutubxona tarmoqlarida ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ta'limiy axborotlar yaratish va ulardan foydalanish: To'plam. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. - B. 32-39.
23. Karimov U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari: Monografiya. - T.: Fan, 2006. - 193 b.

24. Karimov U. va boshq. Avtomatlashtirilgan kutubxona: O`quv qo`llanma /U.Karimov, M.A. Rahmatullaev, A.O. Umarov, A.SH. Muhammadiev. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. -266 b.
25. Karimov U. va boshq. Korporativ-axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT): Uslubiy qo`llanma /U. Karimov, M.A. Rahmatullayev, A.Sh. Muhammadiyev, J. Atajanov, M.P. Savochkin. – T.: Toshkent davlat yuridik institut nashriyoti, 2009. - 79 b.
26. Karimov U. va boshq. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT): Uslubiy qo`ll. / U. Karimov, M.A. Rahmatullaev, A.SH. Muhamadiev, J. Atajanov. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. - 35 b.
27. Rajabov E. E. Kitobxonlarga masofadan xizmat ko`rsatishda foydalanishni o`rgatuvchi multimediali qo`llanma yaratish: bitiruv malakaviy ish / Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti.-Toshkent, 2011.-60 b.
28. GOST 7.83-2001. «Elektronno`e izdaniya. Osnovno`e vido` i vo`xodno`e svedeniya.» 56. Morozov M. N. Po materialam laboratorii sistem multimedia MarGTU <http://www.mmlab.ru>
29. YAkushin A.V Kompyuterno`e seti. Internet i multimedia texnologii.
30. Leksiionno`y kurs. http://www.tspu.tula.ru/ivt/umr/kseti/html_doc/index.htm
31. Simanov A. Multimedia v Internet.
32. <http://club.onego.ru/sittings/multimedia>
33. Sayt kompanii razrabotchika Camtasia Studio <http://techsmith.com>
34. Popov ye. Znakomimsya s programmoy Camtasia Studio
35. http://www.ruseller.com/les_camtasia_studio_3.php.
36. Multimediyno`e texnologii «Kompyuter Press», mart 1999 g.
37. Internetdan olish mumkin bo`lgan saytlar ro`yxati: www.ziyonet.uz, www.referat.ru, vlibrary.freenet.uz, www.intuit.ru, bankreferatov.ru, www.izone.com.ua, www.osp.ru, www.w3.org, www.borland.com, www.intuit.ru, www.javascript.ru

Ilova

Kirish

1-bob. Multimedia ma'lumotlarini qayta ishlovchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili

Videotasvirlarni formatlari va ularni turlariga oid mavjud manbalar tahlili

Multimedia ma'lumot formatlarini almashtirish dasturlari va ularning solishtirma tahlili

Masalaning qo'yilishi

2-bob. Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalar

O'rgatuvchi dasturiy vositalar, ularning turlari va solishtirma imkoniyatlari

Freemake Video Converter dasturi haqida asosiy ma'lumotlar

Freemake Video Converter dasturidan foydalanish bo'yicha texnik va operasion tizimga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish

3-bob. Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish

Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritmi

Yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish yo'riqnomasi

Xayot faoliyati xavfsizligi

Videokonverter dasturlari bilan ishlaganda foydalanuvchi ko'ziga bo'ladigan asosiy ta'sirlar va ularni oldini olish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUXANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

Kasb ta'limi fakulteti

Fakultet dekani

“ _____ ” _____ 2016 y.

Ximoyaga ruxsat etilsin:

Kasb ta'limi (Informatika va AT)

kafedrasi kafedrasi mudiri

_____ O.Jakbarov
“ _____ ” _____ 2016 y.

Bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: _____

Bitiruv malakaviy ishini bajardi:
5111000 - Kasb ta'limi
(Informatika va AT) ta'lim
yo`nalishining 4 kurs talabasi

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

Namangan -2016

«TASDIQLAYMAN»

Kasb ta'limi fakulteti dekani

_____ prof. B.J.Mahmudov

“_____” _____ 2016 y.

NAMANGAN MUẖANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

Bakalavrlar uchun bitiruv malakaviy ishiga

TOPSHIRIQ

Kasb ta'limi fakulteti *Kasb ta'limi (Informatika va AT)* yo`nalishi bo`yicha

Kasb ta'limi (Informatika va AT) kafedrasida bitiruvchi

Raxmonalieva Muxabbat Abdumalik qizi **ning**

(talabaning ismi va familiyasi)

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o`rgatuvchi

dasturiy ta`minot yaratish _____

Ish raxbari _____ t.f.n., dos. O.Jakbarov

(ilmiy darajasi, unvoni, ismi va familiyasi)

Rektorning ish mavzusi va rahbarni biriktirish haqidagi buyrug`i

№ _____ «_____» _____ 2016 yil

Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati “_____” _____ 2016 y.

1. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun boshlang`ich ma`lumotlar

Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlari haqida ma`lumotlar

Kompyuter dasturiy vositalari va texnik ta`minot

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar

2. Tushuntiruv yozuvlarining tarkibi 10-15 ming so`z xajmida qo`lyozma tarzida:

1-bob. O`rgatuvchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili

2-bob. Freemake Video Converter dasturini o`rgatuvchi dasturiy vositalar

3-bob. Freemake Video Converter dasturi o`rgatuvchi dasturiy ta`minot yaratish

Xayot faoliyati xavfsizligi

Xulosa

3. CHizma ishlari tarkibi (ko`rgazmali chizma materiallar)

1. Freemake Video Converter dasturi bo`yicha prezentasion namoyishlar

2. Zamonaviy pedagogik texnologiya metodlariga oid taqdimotlar

3. Dasturiy mahsulot taqdimoti

4. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatlar.

T/r	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchilarning F.I.SH	Topshiriq berildi		Topshiriq bajarildi	
			sana	imzo	sana	Imzo

5. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi (rahbar rejalashtiradi)

T/r	Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tgan muddati
1.	<i>Kirish</i>	21.02.2015	
2.	<i>1-bob. O'rgatuvchi dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili</i>	10.03.2015	
3.	<i>2-bob. Freemake Video Converter dasturini o'rgatuvchi dasturiy vositalar</i>	25.04.2015	
4.	<i>3-bob. Freemake Video Converter dasturi o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish</i>	1.05.2015	
5.	<i>Xayot faoliyati xavfsizligi</i>	15.05.2015	
6.	<i>Xulosa</i>	29.05.2015	
7.	<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i>	3.06.2015	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
(talabanning familiya, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq bajarilgan sana “ ____ ” _____ 2016 y.

Kafedra mudiri _____ dos. O.O.Jakbarov

Mavzu. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish

Аннотация

Ушбу битирув малакавий ишида Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o`rgatuvchi dasturiy ta`minot yaratish амалга оширилади. Шунингдек, яратилган дастурий таъминот ва мавзу бўйича амалий машғулот дарси учун ишланма яратилган. Ушбу тадқиқот ишидан касб-хунар коллежларининг ўқув жараёнида фойдаланиш мумкин.